

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERAKTIV METODLARDAN TO'G'RI VA BOSQICHMA BOSQICH FOYDALANISH

Shodmonqulova Sevara Rahmonqul qizi

kafedrası o'qituvchisi

Umarxonova Dilbegim G'ulom qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi”

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10611122>

Annotatsiya. Bu maqolani yozishdan maqsad boshlang'ich sinf o'quvchilarini darslarga qiziqtirish, turli interaktiv metodlardan samarali foydalangan holda o'quvchilarni darslarni yaxshi o'zlashtirishlariga va o'z mustaqil fikrini bayon qila olishlariga yordam berishdir. Muammoli vaziyatni hal etish uchun o'quvchilar o'rtasida munozara, erkin fikr almashinuvini tashkil etishdir.

Kalit so'zlar: pedagog, interaktiv, metod, adaptatsiya, ta'lim, tarbiya, muammoli vaziyat.

CORRECT AND STEP-BY-STEP USE OF INTERACTIVE METHODS IN PRIMARY CLASSES

Abstract. The purpose of writing this article is to make primary school students interested in lessons, to help them master lessons well and to express their independent opinion by effectively using various interactive methods. It is to organize a discussion and free exchange of ideas among students to solve a problem situation.

Key words: pedagogue, interactive, method, adaptation, education, training, problem situation.

ПРАВИЛЬНОЕ И ПОЭТАПНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ.

Аннотация. Цель написания данной статьи – заинтересовать младших школьников уроками, помочь им хорошо усвоить уроки и выразить свое независимое мнение путем эффективного использования различных интерактивных методов. Это организация дискуссии и свободного обмена идеями среди учащихся для решения проблемной ситуации.

Ключевые слова: педагог, интерактив, метод, адаптация, воспитание, обучение, проблемная ситуация.

Интерактив (inglizcha Interaction-o'zaro ta'sir) metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. O'qitishning interfaol (aktiv)ligi-o'quvchining bilish faoliyatini faollashtirish va o'zaro ta'sir asosida tayyorgarlik samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biridir.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalarning eng ommaviylashgan turlaridan biri-bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati

bo'lib, asosan o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar.

Albatta bu bilim ham kerak. Ammo bilim o'z yo'liga mustaqil fikrlash ham katta boylik."

Biz bu so'zlaridan ham shuni anglasak bo'ladiki, o'quvchini mustaqil fikri biz uchun juda muhim. Aynan interaktiv metodlar orqali biz o'quvchilarda kerakli xulosalarga kelishni, ular o'z fikrlarini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatishimiz zarur. O'qituvchining asosiy vazifasi bu yerda o'quvchilarga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani aytishdan iborat. Interaktiv usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatli, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti bilan to'g'ri xulosani aytib o'tib ketadi, natijada o'quvchi xatosini o'zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi holatlarning oldini oladi. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslanadi. O'qituvchi qanday bo'lmasin o'quvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga o'quvchilarni bir-birlarini tinglashga o'rgatadi.

E'tirozlar, qo'shimchalar ham "hurmatli", "sizning fikringizga qo'shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" "sizning bu haqida fikringizni bilmoqchi edim" kabi so'zlar orqali bildiriladi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda o'quvchi o'zini hurmat qilinayotganligini sezadi va bunday sharoitda hech qanday tayziqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi.

Ushbular bilan birgalikda u boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi.

Bizga ma'lumki, bola maktabgacha ta'lim muassasida tarbiyalanib maktabga keladi va u xohlagan paytida o'tirib turib o'ynab uxlab turadigan davrdan endi muhim tizimlangan davrga keladi va bu jarayonda bu adaptatsiya bo'lishi uchun bu qiyin davr hisoblanadi. Pedagoglar bu jarayonda har bitta bolani individual o'ziga xos bo'lgan imkoniyatlarini o'rganib chiqishlari kerak bo'ladi. Boshlang'ich sinfga kelgan o'quvchilarni ko'proq kuzatish natijasida ba'zi o'quvchilarni matematika fanidan yaxshi o'zlashtirishlarini, yana qaysidir o'quvchilarni o'qishdan, yoki rasm chizishni juda ham sevib bajarishlarini aniqlanadi. Biz pedagoglar shunga qarab topshiriqlarni ularga mos holda tashkil qilishimiz kerak bo'ladi. Biz bu jarayonda ularning ota onalari bilan ham hamkorlik qilishimiz kerak bo'ladi. Albatta bu jarayonda har bitta bolaning ota onasi bilan qilgan hamkorlik bolaning bu jarayonga tezroq moslashtirib olishga yordam beradi. Yana eng muhimi o'yin ta'limini tashkil qilishdir. Bola maktabgacha ta'lim muassasasidan endigina maktabga chiqqanligi uchun hali juda o'yinqaroq va u o'yin orqali darslarga qiziqadi va o'yin orqali ta'lim olishi osonroq bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda turli didaktik o'yin orqali darslarni tashkil qilganimizda mavzularni tezroq o'zlashtirishga yordam bo'ladi. Bu jarayonda albatta bolalarni rag'batlantirib turish kerak bo'ladi.

O'quvchilarni darslarga bo'lgan qiziqishini orttirish maqsadida interaktiv metodlardan to'g'ri va bosqichma-bosqich foydalanish zarur. Quyida interaktiv metodlardan namunalari keltiramiz hamda to'g'ri foydalanish haqida fikr yuritimiz.

Gugurt donalari metodi uning afzaliklari birinchidan o'quv materialini qay darajada o'rganilganligini aniqlashda turli muammolar va vaziyatlar yaratishda va asosiy tushunchalarni tahlil qilish va ta'riflashda shu bilan birga o'z ustida mustaqil ishlash imkonini beradigan metod turlaridan biridir. Gugurt donalari metodining darsni mustahkamlash jarayonida bu metodni o'tkazish uchun biz gugurt donalarini olamiz va o'quvchilarga biz gugurt donachalaridan kim nechta olishini tavsiya qilib chiqamiz va har biz o'quvchi olgan gugurt donalariga qarab mavzu

yuzasidan o'zlarini o'rgangan bilimlarini bizga aytib beradi. Bu bilan darsda o'qituvchini o'zini baholash tizim ham aniqlanadi va berilgan ma'lumotni o'quvchilar qanday darajada o'zlashtirganliklarini aniqlanadi va mustahkamlanadi. Ba'zida gugurt donalari metodidan o'quvchilar charchab qolgan holatda biz ranglar olamiga sayohat usulidan ham foydalanishimiz mumkin biz gugurt donalari metodini ranglar olamiga sayohat deb davom etirishimiz mumkin o'quvchilarda ranglar tavsiya qilinadi va siz qaysi ranglarni ko'proq yoqtirasiz u yerda ranglarni turlari ko'p ham qilsak bo'ladi va bolalar o'zlari tanlab olishadi va mavzu bo'yicha kim nechta rang tanlagan bo'lsa shuncha ma'lumot aytib berishadi albatta bu ranglar istagi bo'ladi.

O'quvchilar mavzu yuzasidan har bitta tanlagan rangga yana bittadab ma'lumot aytib beradi. Bu usul o'quvchilarda birinchi o'rinda mustaqil fikirlashga va mavzu bo'yicha olingan bilimlarni mustahkamlashga va albatta mavzu yuzasidan ma'lum bir kompetensiyaga ega bo'lishga yaqindan yordam beradi.

Bilimlar soyaboni metodi bu matodni har qanday fanda qo'llasak bo'ladi. O'tgan mavzuni mustahkamlash jarayonida qo'llashingiz mumkin. Bizga soyabon metodiga avvaldan tayyorlangan o'tgan mavzuga doir savollar yoki atamalar va kartochlalar kerak bo'ladi. Biz u kartochlarni barglarda yoki soyabondan tushgan yomg'ir tomchilariga yopishtirishimiz mumkin ularni tartib bilan joylashtirish kerak. Agar o'quvchilaringiz soni ko'p bo'lsa savollarni qog'ozlarga yozib soyabonni chekkalariga ilib chiqishingiz mumkin. O'quvchilar aylana shaklda bo'lib turib olishadi va biz soyaboni ochgan vaqtingizga o'quvchilar bittadan savolni yoki atamani tanlab olib uning javobini yoki mazmunini aytib berishlari kerak bo'ladi. Darsning yangi mavzu bayoni qismida esa avvaldan tayyorlangan A4 formatdagi qog'ozga mavzuga doir kerakli so'z va atamani chiqartirib olamiz va ularni soyabonga yopishtirib olamiz. Biz soyaboni aylantirgan vaqtimizda o'quvchilar ana shu so'zlarni ma'nosini aytishi kerak bo'ladi.

Kutuvlar daraxtlar metodi ushbu metodni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish uchun bizga kerak bo'ladi vatmin qog'ozni flamaster va maxsus tayyorlangan qog'oz bo'laklari. Bu metod 3 bosqichda amalga oshiriladi. 1-bosqichda qog'ozga daraxt rasmini chizib olamiz, 2-bosqichda o'quvchilarimiz qog'oz bo'laklariga bugungi mashg'ulotdan qanday yangiliklar kutayotganliklarini yozib daraxtga joylashtirib ketishadi. 3-bosqichda har bir ishtirokchi chiqib o'zi yozgan varaqalarini topib o'qishadi va bugungi mashg'ulotdan kutayotgani bilimlarni olishdini yo'qmi ishtirokchilar bilan o'rtoqlashadi. Agar ishtirokchi o'zi kutayotgan yangiligini ololmagan bo'lsa o'zaro fikr almashishlari yoki ustozdan so'rab o'zlashtirib olishi mumkin.

Kutuvlar daraxti metodining afzalliklari shundaki, har bir o'quvchi dars mashg'ulotlariga qanchalik darajada puxta tayyorgarlik ko'rganligi yoki bilimlari sayoz ekanligi ma'lum bo'ladi.

O'quvchilar bir-birlari bilan fikr almashishadi va o'tilgan mavzu hamda yangi mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, interaktiv o'qitish metodida muammoli vaziyatni hal etish uchun o'quvchilar o'rtasida munozara, erkin fikr almashinuvini tashkil etish "aqliy hujum texnologiyasidan" foydalanish mumkin. Bunday metodlar orqali o'quvchilar hozirjavoblikka o'rganadi, ularning lug'at boyligi ko'payadi, ilmiy-nazariy bilimi yanada mustahkamlanadi va darsga qiziqishi ortadi. Bu metodlar bolalarni xotirasini mustahkamlashga, darslarni yaxshi va oson o'zlashtirishiga va diqqatini jamlashiga yordam beradi.

REFERENCES

1. Karimov. “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. T.,1997
2. Yo‘ldoshev.J.G‘ “Yangi pedagogik texnologiya yo‘nalishlari, muammolari, yechimlari” “Xalq ta’limi”, 1999
3. Мусурмонова, Ш. И. (2019). Инсонларнинг табиатга эстетик муносабатини шакллантиришда экологик таълим тарбиянинг роли. *Интернаука*, (37), 91-92.
4. Ilhomovna, M. S. (2022). SIGNIFICANCE AND ROLE OF PEDAGOGICAL CREATIVITY.
5. Ilhomovna, M. S. (2021, July). HEALTHY ENVIRONMENT-HEALTHY COMMUNITY. In *Archive of Conferences* (pp. 62-66).
6. Shahlo-Ilhomovna, M. (2021). On The Basis Of An Integrated Approach, Give Environmental Education To Primary School Students. *The American Journal of Applied sciences*, 3(06), 65-69.
7. Maftuna, G. (2023). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF METHODOLOGICAL TRAINING OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR LOGICAL THINKING. *Modern Science and Research*, 2(10), 91-94.
8. Ganiyeva, M. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mantiqiy fikrlashga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari. МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҲАҚИҚАТ БИЛИМЛЕНДИРИЎ.
9. Ganiyeva, M. (2018). Yuksak intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashning asosiy yo‘nalishlari. *INTELLEKTUAL SALOHİYAT-TARAQQIYOT MEZONI*.
10. Ganiyeva, M. (2018). Uzluksiz ta'limda o'qitish samaradorligini oshirishga pedagogik-psixologik yondashish. *NamDU ilmiy axborotnomasi*.